



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILIDA RANGLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Abdurasulova Mohichehra

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar : Yuldasheva F.F

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini, xususan ranglarni oson va tez o'rgatish yo'llari, buning uchun zarur bo'ladigan zamonaviy metod va innovatsion usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada yosh avlodning bolalikdan chet tillariga mehr qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishning eng muhim omillari haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статье описаны способы обучения детей дошкольного возраста английскому языку, особенно цветам, легко и быстро, используя современные методы и необходимые для этого инновационные методы. Также в статье рассматриваются важнейшие факторы любви молодого поколения к иностранным языкам и их заинтересованности в изучении языков.*

Abstract: *This article includes ways to teach preschool children English, especially colors, easily and quickly, using modern methods and innovative methods necessary for this. Also, the article discusses the most important factors of the young generation's love for foreign languages and their interest in language learning.*

Kalit so'zlar: *metod, texnologiya, o'yin, ta'lim, interaktiv, ranglar, tasvir, video resurslar.*

Ключевые слова: *метод, технология, игра, образование, интерактив, цвета, изображение, видеоресурсы*

Key words: *method, technology, game, education, interactive, colors, video resources.*

Bugungi kunda ingliz tili dunyo tili sifatida tan olinib, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yildan - yilga oshib bormoqda. Hattoki endigina tili chiqqan bolalarga ham oddiy so'zlardan boshlab bu til o'rgatilib borilmoqda. Zero, xalqimizda "Til bilgan- el biladi", deb bejiz aytilmagan. Prezidentimizning 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi PQ- 1875- sonli qarori bu maqsadni ro'yobga chiqarish va shu doirada maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlab borish to'g'risida dasturamal bo'ldi desak hech ham adashmagan bo'lamiz. [1, 240] Zamon talabidan ma'lumki, hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalariga ilk qadamni qo'ygan yosh bolalar ham sanashni, o'qishni bosqichma- bosqichlikda boshlashmoqda. Ya'ni ushbu yoshdagi bolalarga kattalarga xos usullardan foydalanmasdan, ularning qiziqishlari, intilishlariga mos metodlardan foydalanish kerak. Bu borada esa turli o'yinlar, ko'rgazmali qurollar, kulgili videolar so'zlarni yodlashning eng samarali usuli hisoblanadi.

Bola qachon ranglarni ajrata boshlaydi?



Mutaxassislarning takidlashicha, kichkintoylar 3 yoshda ko'pgina ranglarni taniy oladi va ularning nomini biladi. Ana shu vaqtdan boshlab ularda borliqqa nisbatan tasavvur kengayib boradi. Bu vaqtda bolakay juda topqir, izlanuvchan bo'ladi. Bu nima?, u nima?, u nega unday qildi?, bu nega bunday qildi? va shu singari savollarni bera boshlaydi. K. D. Ushinskiyning ta'kidlashicha, chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oyda yaxshiroq o'rganib oladi. [2, 4] Ota- ona yoki o'qituvchi o'zining qimmatli vaqtini bir necha oyga farzandining kamoli, kelajagi uchun ajratishi va dilbandining ayni qiziqishlari jo'sh urgan vaqtdan unumli foydalanishi lozim. Chunki bolada biror bir narsani o'rganishga bo'lgan ishtiyoq har doim ham paydo bo'lavermaydi.

Bolalarga ranglarni qanday yoki qay tarzda o'rgatish kerak.

Kattalarning xayolida ular uchun oson bo'lgan narsalarning aksariyatini bolalikda tushinish qiyin kechadi. Bunda esa biz hammamiz ranglarni qanday ajratishni o'rganganimizni eslay olmaymiz. A. Bonkning fikricha, yosh bolaga xorijiy tilni o'rgatishda ularning psixologiyasini hisobga olish zarur, chunki yosh o'rganuvchi qiziqqon bo'ladi va zerikishni yoqtirmaydi. Shuni inobatga olgan holda, bog'cha bolalari uchun qiziqarli bo'lgan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Albatta, har qanday turdagi ma'lumot bola tomonidan o'yin shaklida katta ishtiyoq bilan qabul qilinadi.

***Magic bus (Sehrli avtomus) o'yini.** Siz bu o'yinni bellashuv tarzida o'tkazishingiz mumkin. Farzandingizga har bir bekatga (uyga) kirib, o'zi bilgan ranglari ishtirok etgan yo'lovchilarni (buyumlarni) topishini va eng ko'p yo'lovchi (buyumlarni) topgan havdovchi o'yin g'olibiga aylanishini ayting.

*** "Topqir bolajon" o'yini.** Yoningizga o'nga yaqin rangli qalam oling va har bir rangli qalamning nomini aytib chiqing. So'ngra farzandingizning ko'zini yumib, qalamlardan bir nechtasini olib qo'ying. Farzandingiz bo'lsa, eslab qolish qobiliyatini ishga solib, yoqolgan ranglarni topsin. Bu o'yin nafaqat ranglarni eslab qolishiga, balki miya faoliyatining yaxshi ishlashiga ham katta yordam beradi.

*** "Hot potato" - (Issiq kartoshga) o'yini.** Bu o'yinda sizga koptok kerak bo'ladi. Siz avvalo biror bir predmetni rangi bilan aytib koptokni farzandingizga uloqtirasiz u esa siz aytgan buyumni rangi bilan qayta takrorlab aytishi kerak.

Banan, Banana - yellow

Olma, apple - red

Qalam, pencil- blue

Ikkinchi bosqichda esa siz faqat predmetning nomini, kichkintoyingiz esa uning rangini aytishi kerak. Bu o'yinning eng muhim tomoni barcha savolga tezlik bilan javob beriladi, aks holda

"Issiq kartoshka" qo'llarini kuydirishi mumkin.

*** "Uycha - uycha" o'yini.** Bolalarning sevimli o'yinchoqlaridan biri bu Legolardir. Farzandingiz bu qurilmadan foydalanib uy yasashi va undagi ranglarni ingliz tilida nomlashi lozim.

Qizil tom- red roof

Sariq eshik -yellow door



Oq deraza - white window

va shu singari. Bu o'yin ranglarni o'rganish bilan birgalikda yaratuvchanlik qobiliyatini ham oshiradi.

Siz shu singari o'yinlarni o'zingiz o'ylab topishingiz mumkin, muhimi dangasalik qilmang, farzandingizning bu tilni mukammal o'rganishi uchun barcha imkoniyatingizdan foydalaning. Chunki ranglar hayotimizni yanada yorqin qiladi, ingliz tilida ham shunday. Ranglarni o'rganmasdan turib, tilning go'zalligini to'liq bilish deyarli mumkin emas.

Ingliz tilida ranglarni tez eslab qolish uchun nima qilish kerak?

1. Bolani ranglar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan o'rab oling. Har doim ko'radigan buyumlarining ranglarini yozib chiqing.

Muzlatkich kulrang - grey

Divan oq - white

Kitob javoni - violet

Televizor qora - black ...

2. Farzandingizga ko'zini yumib xayolan narsalarni tasavvur qilishini va ularning rangini aytishini so'rang. Albatta, ingliz tilida.

3. Bola tomonidan rasmlarni bo'yash - bu ranglarni o'rganishning eng samarali va qiziqarli usullaridan biri hisoblanadi. Tasvirning bir qismiga ingliz tilida bo'yash kerak bo'lgan ranglarni nomlang.

4. Yodlagan so'zlarini doimiy tarzda takrorlab boring.

5. Bugungi kunda Video resurslardan foydalanish va ularni qo'llash ingliz tilini o'qitishda juda mashhur va samarali texnikaga aylanib bormoqda. Siz ham farzandingizga ranglarga taalluqli turli multfilmlarni qo'yib bering. Siz ham birgalikda tomosha qiling, so'ngra birgalikda muhokama qiling.

Ranglarni o'rganishga yordam beradigan videolar:

*Peppa Pig bilan ranglarni o'rganing.

*Luntik bilan ingliz tilida ranglarni o'rganing.

*Qiziqarli rang qo'shiq. [3, 8- bet]

Xuddi shu tarzda asosiy ranglarning nomlari ustida ishlang, agar farzandingiz ularning nomlarini eslab qola olishiga ishonchingiz komil bo'lsa, yangi so'zlarni ham qo'shishingiz, bu orqali esa farzandingizning lug'at boyligini oshirib borishingiz mumkin.

Bu tilni o'rgatishning yana bir qulay usullaridan biri bu- bolani rag'batlantirib borishdir.

Maqtov, albatta, hammaga yoqadi. Agarda bitta savolning javobini to'g'ri topsa ham farzandingizni maqtab qo'ying. Bu tilni tez o'rganayotganini, agarda bu tilda gaplasha oladigan bo'lsa, Amerikaga olib borishingizni ayting. Farzandingiz bu davlat haqida ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin, bilmagan, ko'rmagan narsa haqida esa hech qaysi bola qiziqmaydi, shuning uchun bu mamlakat haqida qiziqarli ma'lumotlar ayting, videolar, rasmlar ko'rsating. Yoki har bir bergan to'g'ri javobi uchun shirinliklar bilan mehmon qiling, yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini olib bering, hayvonot bog'iga olib boring. Shunda farzandingizning qiziqishi yanada ortadi, ko'proq narsani bilsam ekan, o'rgansam ekan degan tushuncha paydo bo'ladi. Siz esa o'z o'ylagan maqsadingizga erishasiz. Konfutsiy



aytganidek, "Aytsang- unitaman, ko'rsatsang- eslab qolaman, o'zim bajarsam- anglab yetaman." Albatta, ming bora eshitgandan bir bora ko'rgan, o'zi bajarib ko'rgani afzal.

Tilni o'rgatishdagi yana bir muhim jihatni aslo unutmang!

Agarda farzandingizda harakatingizga nisbatan hech qanday javob bo'lmasa, bolakayni koyimang. Balki siz bu tilga qiziqтира olmayotgandirsiz, balki hali vaqtlidir. Nima bo'lganda ham bu masalaga sabr bilan yondashing. Bolaning yangi narsalarni ishlab chiqish va o'rganish imkoniyatidan mahrum qilmang. Shunchaki harakat qilishdan to'tamang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlar to'g'risida" gi PQ- 1875- sonli qarori. - Xalq so'zi. - № 240 (5660).- Toshkent, 2012.

2. Jamol Jalolov " Chet til o'qitish metodikasi", Toshkent- 2012. 4- bet .

3. Romanova Larisa Aleksandrovna "Ingliz tilini o'qitish metodikasi", Blagoveshchensk, 2018, 8- bet

INTERNET SAYTLARI:

<https://goarovetisyan.ru>

<https://temidnya.ru>